

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna	
BREND POZITSİYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich	

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)



Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
Davlat boshqaruvi maktabi magistranti

ANNOTATSIYA. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning makroiqtisodiy samaradorligi bandlik dasturlari misolida IMRAD tuzilmasi asosida tahlil qilingan. Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida norasmiy bandlik va yordamning manzilliligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar aniqlangan. Tadqiqotning asosiy natijasi sifatida to'rt komponentli Manzilli Samaradorlik Indeksi (MSI) modeli ishlab chiqilgan va ijtimoiy soliq imtiyozi mexanizmi misolida sinovdan o'tkazilgan. Qamrov bosqichiga qarab MSI qiymati 51,4 balldan 63,4 ballgacha o'zgarishi aniqlangan. 1 million kishini qamrab olish sharoitida yillik sof byudjet samarasi 2 181,6 milliard so'mni tashkil etishi hisoblangan. Tadqiqot natijalari asosida davlat organlari faoliyatida foydalanish mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Xalqaro Mehnat Tashkilotining rasmiy ma'lumotlariga asoslangan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, bandlik dasturlari, makroiqtisodiy samaradorlik, Manzilli Samaradorlik Indeksi, manzilli yordam, ijtimoiy soliq imtiyozi, norasmiy bandlik, byudjet samaradorligi, Gini koeffitsiyenti, O'zbekiston iqtisodiyoti.

АННОТАЦИЯ. Макроэкономическая эффективность сокращения бедности в Узбекистане проанализирована на примере программ занятости в соответствии со структурой IMRAD. На основе официальных статистических данных выявлены проблемы, связанные с неформальной занятостью и обеспечением адресности социальной поддержки. В качестве основного результата исследования разработана четырёхкомпонентная модель Индекса адресной эффективности (ИАЭ), апробированная на примере механизма льготы по социальному налогу. Установлено, что в зависимости от этапа охвата значение ИАЭ варьируется от 51,4 до 63,4 балла. Рассчитано, что при охвате 1 миллиона человек годовой чистый бюджетный эффект составляет 2 181,6 млрд сумов. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации, которые могут быть использованы в деятельности государственных органов. Исследование основано на официальных данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, Всемирного банка, Международного валютного фонда и Международной организации труда.

Ключевые слова: бедность, программы занятости, макроэкономическая эффективность, Индекс адресной эффективности, адресная помощь, льгота по социальному налогу, неформальная занятость, бюджетная эффективность, коэффициент Джини, экономика Узбекистана.




ABSTRACT. The macroeconomic efficiency of poverty reduction in Uzbekistan is assessed through employment programs within the IMRAD framework. Official statistical data are used to identify challenges related to informal employment and the effective targeting of social support. The principal outcome of the study is a four-component Targeted Efficiency Index (TEI), developed and tested using a social tax exemption mechanism. The results indicate that the TEI score ranges from 51.4 to 63.4 points depending on the coverage stage. At a coverage level of 1 million people, the annual net fiscal effect is estimated at UZS 2,181.6 billion. Based on the findings, practical recommendations are developed for potential application by public authorities. The study draws on official data from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, the World Bank, the International Monetary Fund, and the International Labour Organization.

Keywords: poverty, employment programs, macroeconomic efficiency, Targeted Efficiency Index, targeted assistance, social tax exemption, informal employment, fiscal efficiency, Gini coefficient, economy of Uzbekistan.

KIRISH

Zamonaviy davlat siyosatining markaziy va tizimli yo'nalishlaridan biri aholining moddiy farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishdir. Bandlik darajasining oshishi kambag'allikni qisqartirishning eng samarali va ishonchli makroiqtisodiy vositalaridan biri hisoblanadi, chunki barqaror ish o'rni aholi uchun doimiy daromad manbaini ta'minlaydi va ijtimoiy transfertlarga bog'liqlikni kamaytiradi.

O'zbekistonda so'nggi o'n yilliklarda kambag'allikni qisqartirish borasida sezilarli natijalarga erishildi: milliy kambag'allik darajasi 1994-yildagi 44,5 foizdan 2024-yil yakunida 8,9 foizgacha, 2025-yilga kelib esa 5,8 foizgacha pasaydi [7][21] (1-rasm). Daromadlar tengsizligini aks ettiruvchi Gini koeffitsiyenti 2024–2025-yillar oralig'ida 34,6 dan 32,7 gacha yaxshilangan [21]. Bunday dinamika, S. A. Fuzailov ta'kidlaganidek, so'nggi yillardagi tarkibiy islohotlar hisobiga makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi bilan uzviy bog'liq [6].



1-rasm. O'zbekistonda milliy kambag'allik darajasining 1994–2025-yillardagi dinamikasi¹

Shu bilan birga, erishilgan natijalarni yanada mustahkamlash va samaradorlikni oshirish zarurati mavjud. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) baholariga ko'ra, O'zbekistonda norasmiy bandlik darajasi 39 foizdan (2022-yilgi LFS ma'lumotlari) 60 foizgacha bo'lgan oraliqda baholanadi [11][12][13], sohalar kesimida esa qishloq xo'jaligi (71 foiz), qurilish (73 foiz) va uy xo'jaliklarida yollanma mehnat (80 foiz) yo'nalishlarida nisbatan yuqori [11]. Bu holat mavjud bandlik dasturlarining kam ta'minlangan qatlamlarga yanada samarali va maqsadli yetib borishini ta'minlash imkoniyatlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)ning 2025-yilgi IV modda konsultatsiyasi materiallarida ta'kidlanishicha, ishsizlarning 2,5 foizi ishsizlik nafaqasi bilan qamrab olingan, faol mehnat bozori dasturlariga ajratilgan davlat

¹ Manba: [7][21] asosida muallif tuzgan



mablag'lari esa YalMning muayyan ulushini tashkil etadi [14]. O'zbekiston hukumati ushbu yo'nalishdagi samaradorlikni yanada oshirish maqsadida 2020-yildan boshlab "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Ijtimoiy reestr" kabi manzilli hisob-kitob mexanizmlarini, shuningdek, "Mahallabay" ishlash tizimini joriy etgan. 2026-yil uchun hukumat oldiga bir million kishiga barqaror bandlikni ta'minlash, 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish vazifasi qo'yilgan [21].

Yuqoridagilar tadqiqotning quyidagi obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalarini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti — O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bandlik va kambag'allikni qisqartirish dasturlari, xususan, manzilli ijtimoiy soliq imtiyozi mexanizmi.

Tadqiqot predmeti — mazkur dasturlarning maqsadli qatlamlarga yetib borish samaradorligini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar va ularni baholash uslubi.

Tadqiqotning maqsadi — bandlik dasturlarining samaradorligini kompleks baholovchi Manzilli Samaradorlik Indeksi (MSI) modelini ishlab chiqish va uni amaldagi mexanizm misolida sinovdan o'tkazish.

Tadqiqot vazifalari:

- mavzuga oid nazariy va amaliy adabiyotlarni tahlil qilish hamda tadqiqot bo'shlig'ini aniqlash;
- MSIning nazariy modelini va uning komponentlarini ishlab chiqish;
- modelni real hisob-kitoblar (ijtimoiy soliq imtiyozi mexanizmi) asosida sinovdan o'tkazish;
- natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot gipotezalari quyidagicha shakllantirilgan: H1 — mavjud bandlik dasturlari maqsadli qatlamlarning muayyan qismini qamrab oladi ("maqsad chekinishi"); H2 — dastur samaradorligi qamrov darajasi bilan chiziqli bog'liq; H3 — imtiyoz miqdorining oshishi ish beruvchilar ishtirokini kuchaytirishi mumkin, bunda byudjet samaradorligi bilan o'zaro muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik dasturlarining samaradorligi mavzusi xorijiy va mahalliy iqtisodchilarning izchil e'tiborida bo'lib kelgan. Ushbu mavzu bo'yicha adabiyotlarni shartli ravishda uchta yo'nalishga ajratish mumkin: (1) kambag'allikning nazariy-uslubiy talqini va uni bartaraf etish strategiyalari bo'yicha fundamental ishlar; (2) faol mehnat bozori dasturlarini baholash uslubiyotiga bag'ishlangan amaliy tadqiqotlar; (3) O'zbekiston sharoitida kambag'allikni qisqartirish muammolarini o'rganuvchi mahalliy tadqiqotlar.

Kambag'allikning nazariy talqini va xalqaro tajriba

Xorijiy tadqiqotchilardan Amartya Sen kambag'allikni faqat daromad yetishmovchiligi emas, balki "imkoniyatlardan mahrumlik" sifatida ta'riflaydi va rivojlanishni erkinliklarni kengaytirish jarayoni sifatida talqin qiladi; uning "imkoniyatlar yondashuvi" (capability approach) kambag'allikni ko'p o'lchovli hodisa sifatida ko'rish zaruriyatini asoslab beradi [18]. Jeffrey Sachs kambag'al qatlamlarga davlat aralashuvi orqali "katta turtki" (big push) berish zarurligini asoslab, bozor mexanizmlari bilan bir qatorda qo'shimcha qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish kambag'allik tuzog'idan (poverty trap) chiqish imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatadi [17]. Joseph Stiglitz progressiv soliq va ijtimoiy himoya tarmoqlari orqali tengsizlikni kamaytirish zarurligini ta'kidlaydi hamda tengsizlikni kamaytirish iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash omillaridan biri bo'lishi mumkinligini asoslaydi. Bu esa kambag'allikka qarshi kurashni nafaqat ijtimoiy, balki makroiqtisodiy barqarorlik masalasi sifatida ham ko'rish lozimligini ko'rsatadi [19].

Abhijit Banerjee va Esther Duflo tajriba-sinov (RCT — Randomized Controlled Trial) usulidan foydalangan holda kichik, ammo aniq manzilli aralashuvlarning kattaroq va tarqoq dasturlarga qaraganda ko'proq samara berishini ko'rsatadi; ularning xulosasiga ko'ra, kambag'allikka qarshi siyosatda empirik dalillarga asoslangan yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Heckman, LaLonde va Smith esa faol mehnat bozori dasturlarini baholashning uslubiy jihatlarini, xususan, kichik miqyosdagi pilot loyihalar natijalarini katta miqyosga ko'chirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni (scale-up bias) va tanlanish nosimmetriyasi (selection bias) masalasini batafsil tahlil qiladi. Bu esa MSI modelidagi I1 (qamrov) va I3 (xarajat-natija) o'rtasidagi mumkin bo'lgan almashinuvni nazariy jihatdan asoslaydi [10]. Xalqaro amaliyot nuqtai nazaridan, B.K. Zaripov Braziliyaning shartli pul o'tkazmalariga asoslangan "Bolsa Familia" dasturi va Xitoyning maqsadli kambag'allikni qisqartirish strategiyasini qiyosiy tahlil qilib, ikkala dasturning ham muvaffaqiyati aniq manzillilik, natijaga yo'naltirilgan monitoring va uzoq muddatli institutsional barqarorlikka asoslanganini ko'rsatadi [22].

O'zbekiston sharoitida kambag'allik va bandlik muammolari bo'yicha tadqiqotlar

Mahalliy iqtisodchilar orasida G'.R. Adashov kambag'allikni qisqartirishning makroiqtisodiy samaradorligini panel ma'lumotlar asosida tahlil qilib, ISKM-2025 nomli baholash modelini taklif etadi; ushbu model asosan agregat, milliy darajadagi ko'rsatkichlar (YalM o'sishi, inflyatsiya, ijtimoiy transfertlar hajmi) o'rtasidagi bog'liqlikka tayanadi va alohida dastur yoki mexanizm darajasidagi manzillilikni o'lchash imkoniyatlarini yanada



rivojlantirish uchun ilmiy asos yaratadi [1]. R.R. Hasanov rasmiy va norasmiy sektor o'rtasidagi institutsional tafovutlarni tadqiq qilib, norasmiylikning tarkibiy sabablari sifatida yuqori tranzaksion xarajatlar, soliqlik yukining ta'siri va nazorat mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi [9]. Sh.K. Hamdamov ijtimoiy himoyani moliyalashtirish masalalarini, jumladan, manzilli yordamning byudjetga yukini o'rganadi va mavjud transfert tizimining moliyaviy barqarorligini baholash zarurligini ta'kidlaydi [8]. S.A. Fuzailov esa iqtisodiy islohotlarning kambag'allikka ta'sirini makroiqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan tahlil qilib, tarkibiy islohotlar bilan kambag'allik ko'rsatkichlari o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiyani aniqlaydi [6].

Adabiyotlar tahlilining umumlashtirilgan natijalari va tadqiqot bo'shlig'i

Ko'rib chiqilgan asosiy manbalarda qamrov olingan yo'nalishlar va ularni yanada rivojlantirish imkoniyatlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval
Mavzuga oid asosiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili²

Muallif(lar)	Tadqiqot yo'nalishi	Asosiy natija	Rivojlantirish imkoniyati (MSI nima uchun zarur)
Sen, A. [18]	Kambag'allikning nazariy talqini	Kambag'allik — imkoniyatlardan mahrumlik	Amaliy o'lchov vositalari bilan boyitish imkoniyati mavjud
Banerjee & Duflo [3]	Manzilli aralashuvlar samaradorligi (RCT)	Kichik, aniq aralashuvlar yuqori samara beradi	Xarajat-natija va barqarorlikni birligida o'lchash orqali yondashuvni kengaytirish mumkin
Heckman va boshq. [10]	FMBD baholash uslubiyoti	Miqyos oshganda samaradorlik o'zgarishi mumkin	O'zbekiston kontekstiga moslashtirish imkoniyati mavjud
Adashov, G'.R. [1]	Milliy darajadagi makroiqtisodiy samaradorlik (ISKM-2025)	Agregat ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik	Dastur/mexanizm darajasidagi manzillilik ko'rsatkichlari bilan boyitish mumkin
Hasanov, R.R. [9]	Rasmiy/norasmiy sektor tafovutlari	Norasmiylikning institutsional sabablari	Baholash indeksini ishlab chiqish orqali yondashuvni rivojlantirish mumkin
Hamdamov, Sh.K. [8]	Ijtimoiy himoyani moliyalashtirish	Transfert tizimining byudjetga yuki	Qamrov va natija o'lchamlarini kiritish orqali yondashuvni kengaytirish mumkin
Zaripov, B.K. [22]	Xalqaro tajriba (Braziliya, Xitoy)	Manzillilik va monitoring muvaffaqiyatning muhim omillari	O'zbekiston uchun miqdoriy model ishlab chiqish imkoniyati mavjud

Yuqoridagi qiyosiy tahlildan ko'rinadiki, mavjud ishlarda bandlik dasturlarining qamrovi, xarajat samaradorligi va institutsional jihatlar turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Shu bilan birga, qamrov, natija, xarajat va barqarorlikni yagona miqdoriy shkalada birlashtiruvchi kompleks baholash vositasini yanada rivojlantirish uchun ilmiy imkoniyat mavjud. Aynan shu tadqiqot bo'shlig'i (research gap) mazkur maqolaning o'ziga xosligini belgilaydi: muallif tomonidan taklif etilayotgan to'rt komponentli Manzilli Samaradorlik Indeksi (MSI) avvalgi tadqiqotlardagi yondashuvlarni rivojlantirgan holda, bitta dastur doirasida qamrov, natija, xarajat va barqarorlikni bir vaqtning o'zida yagona 0–100 ballik shkalada o'lchash imkonini beradi hamda uni O'zbekistonning amaldagi manzilli mexanizmi — ijtimoiy soliq imtiyozlari misolida aniq raqamlar asosida sinovdan o'tkazadi. Shu bilan birga, MSI Heckman va boshqalar ta'kidlagan miqyos masalasini (I1 orqali) va Banerjee hamda Duflo ilgari surgan manzillilik tamoyilini (I2 orqali) bir modelda uyg'unlashtiradi, bu esa uning nazariy jihatdan asoslanganligini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda aralash metodologiya (mixed methods research design) qo'llaniladi: bir tomondan, ikkilamchi statistik ma'lumotlar — O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi [16], Osiyo Taraqqiyot Banki [2], Jahon banki [20][21], XVF [14] va ILO [11][12][13] hisobotlari — 2016–2025-yillar bo'yicha qiyosiy taqqoslash usulida

2 Muallif ishlanmasi

tahlil qilinadi, ikkinchi tomondan esa muallif tomonidan ishlab chiqilgan manzilli soliq-imtiyoz mexanizmining moliyaviy modeli [5] asosida yangi kompozit ko'rsatkich — Manzilli Samaradorlik Indeksi (MSI) matematik hisoblash usulida sinovdan o'tkaziladi. Kelgusi bosqichda o'tkaziladigan chuqur intervyular (30–40 nafar ishtirokchi) natijalari Braun va Klark tomonidan taklif etilgan tematik tahlil (thematic analysis) protokoli asosida kodlashtirilishi rejalashtirilgan [4].

Qiyosiy taqqoslash usulidan quyidagicha foydalanildi: dastlab O'zbekiston bo'yicha 1994–2025-yillardagi kambag'allik statistikasi vaqt qatori (time series) tarzida solishtirildi; so'ngra hududlar kesimida (Buxoro, Samarqand, Namangan, Qoraqalpog'iston, Navoiy, Xorazm) 2024-yil boshi va oxiridagi ko'rsatkichlar taqqoslandi; nihoyat, MSI modelining o'zi turli ssenariylar (imtiyoz stavkasi 1–12%, qamrov 10–50%) bo'yicha sezgirlik tahlili (sensitivity analysis) orqali sinovdan o'tkazildi. Ushbu yondashuv faol mehnat bozori dasturlarini baholashning xalqaro uslubiy an'analariga mos keladi [10] va manzilli, kichik miqyosli aralashuvlarning samaradorligini aniqlashtirish imkonini beradi [3].

MSIning nazariy modeli

MSI — bandlik dasturining maqsadli kam ta'minlangan qatlamlarga yetib borish samaradorligini yagona 0–100 ballik shkalada ifodalovchi kompozit ko'rsatkich bo'lib, to'rt komponentning og'irlangan yig'indisi sifatida quyidagicha ta'riflanadi:


$$MSI_j = w_1 \cdot I_{1j} + w_2 \cdot I_{2j} + w_3 \cdot I_{3j} + w_4 \cdot I_{4j}, \quad \sum w_k = 1$$

bunda j — baholanayotgan dastur/mexanizm, I_1-I_4 — quyida ta'riflangan subindekslar (har biri 0–100 oralig'ida normallashtirilgan), w_k — ekspert baholash asosida belgilangan boshlang'ich og'irlik koeffitsiyentlari (2-jadval, 2-rasm).

2-jadval
MSI komponentlari, formulalari va og'irlik koeffitsiyentlari³

Komponent	Formula	Mazmuni	w _k
I ₁ — Qamrov samaradorligi (Coverage Effectiveness)	$I_1 = (N_{\text{dastur}} / N_{\text{maqsad}}) \times 100$	Dasturdan real foydalangan maqsadli aholi sonining reyestrda umumiy maqsadli aholi soniga nisbati	0,30
I ₂ — Natija samaradorligi (Outcome Effectiveness)	$I_2 = [(GAP0 - GAP1) / GAP0] \times 100$, GAP = max(0; chegara – daromad)	Ishtirokchi oilaning kambag'allik chegarasigacha bo'lgan daromad tafovuti qanchalik yopilganini o'lchaydi	0,30
I ₃ — Xarajat-natija samaradorligi (Cost-Effectiveness)	$I_3 = (\Delta B / T0) \times 100$, $\Delta B = T0 - Xt$	Byudjetga tejalgan sof mablag'ning bazaviy transfert xarajatiga nisbati (T0 — tejalgan transfert, Xt — berilgan soliq imtiyozi)	0,25
I ₄ — Barqarorlik (Sustainability)	I ₄ = institutsional mustahkamlik indeksi (ekspert bahosi, 0–100)	Dastur tugagandan keyin barqaror bandlikni saqlab qolish ehtimoli; birlamchi so'rovnomaga (n = 400) orqali validatsiya qilinishi rejalashtirilgan	0,15

MSI komponentlarining og'irlik koeffitsientlari



2-rasm. MSI komponentlarining og'irlik koeffitsiyentlari⁴

3 Muallif ishlarnasi

4 Muallif ishlanmasi



MSI modelining amaliy sinovi uchun biz ilgari ishlab chiqqan manzilli mexanizm — “kambag’al oilalar reyestriga kiritilgan oiladan bir nafar fuqaroni kamida 12 oyga rasmiy ishga olgan tadbirkorga 12% ijtimoiy soliqdan to’liq imtiyoz berish” sxemasi [5] — hisob-kitob bazasi sifatida qo’lladik. Modelning bazaviy parametrlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval
MSI modelining bazaviy parametrlari⁵

Parametr	Qiyamati
Rasman e’lon qilingan kambag’alilik chegarasi	715 000 so’m/jon/oy [7]
O’rtacha oila tarkibi	4 kishi (shu jumladan, 2 nafar bola)
Ikki bolali oilaga to’lanadigan oylik bola puli (1-bola)	385 000 so’m/oy
Ikki bolali oilaga to’lanadigan oylik bola puli (2-bola)	177 000 so’m/oy
Jami bola puli (T0)	562 000 so’m/oy
Dastur bo’yicha minimal shart ish haqi (W)	2 860 000 so’m/oy (= 4 × 715 000)
Ijtimoiy soliq stavkasi (t)	12%

Dastur bo’yicha minimal shart ish haqi 4 × 715 000 so’mga teng qilib belgilangan, ya’ni yangi ish o’rni oilani aynan kambag’alilik chegarasigacha olib chiqishga xizmat qiladi. Ushbu parametrlar keyingi bo’limdagi barcha hisob-kitoblar uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sof byudjet samarasi (ΔB) — tejalgan bola puli bilan berilgan soliq imtiyozi o’rtasidagi farq sifatida hisoblanadi:

$$\Delta B = T_0 - t \cdot W = 562\,000 - 0,12 \times 2\,860\,000 = 562\,000 - 343\,200 = 218\,800 \text{ so’m/oy}$$

(ya’ni 2 181 600 so’m/yil bir ishtirokchiga)

Bu qiymat asosida:

$$I_3 = (218\,800 / 562\,000) \times 100 = 34,63 \text{ ball}$$

Byudjet nuqtai nazaridan neytral bo’ladigan (‘break-even’) ish haqi darajasi quyidagicha topiladi:

$$W^* = T_0 / t = 562\,000 / 0,12 = 4\,683\,333 \text{ so’m}$$

Demak, 2,86–4,683 mln so’m oralig’idagi ish haqida mexanizm byudjet uchun xavfsiz (sof foyda musbat) bo’lib qoladi.


Imtiyoz stavkasi 1 foizdan 12 foizgacha oshirilganda I_3 qanday o’zgarishini ko’rsatuvchi sezgirlik tahlili 4-jadvalda va 3-rasmda keltirilgan.

4-jadval
Imtiyoz stavkasi bo’yicha sezgirlik tahlili va I_3 qiymati⁶

Imtiyoz, %	Imtiyoz summasi, so’m/oy	Sof tejash, so’m/oy	Sof tejash, so’m/yil	I_3 , ball
1	28 600	496 400	5 956 800	94,91
3	85 800	439 200	5 270 400	84,73
5	143 000	382 000	4 584 000	74,56
7	200 200	324 800	3 897 600	64,38
9	257 400	267 600	3 211 200	54,20
10	286 000	239 000	2 868 000	49,11
12	343 200	181 800	2 181 600	38,93

5 Muallif ishlanmasi

6 Muallif ishlanmasi



3-rasm. Imtiyoz stavkasi oshishi bilan I_3 indeksining monoton pasayishi⁷

Jadval va grafikdan ko'rinadiki, imtiyoz stavkasi oshgan sari byudjet xarajat-natija samaradorligi (I_3) monoton kamayadi - 1 foizda 94,91 balldan 12 foizda 38,93 ballgacha. Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotlarda yuqoriroq subsidiya stavkasi ish beruvchining dasturga qo'shilish ehtimolini (demak - I_1 qamrov ko'rsatkichini) oshirishi ko'rsatilgan [10]. Bu I_1 va I_3 o'rtasidagi potensial almashinuv (trade-off) MSI konstruksiyasining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Dastur ishtirokchisi oilaning jon boshiga daromadi dastur boshlanishidan oldin, kambag'allik reyestriga kiritilishi uchun zarur bo'lgan shartga ko'ra, 715 000 so'm/jondan past bo'lgan; modelning shartli boshlang'ich holatida (baseline) bu ko'rsatkich o'rtacha 500 000 so'm/jon deb olinadi:

$$GAP_0 = 715\,000 - 500\,000 = 215\,000 \text{ so'm}$$

Yangi ish o'rni orqali oila daromadi 2 860 000 so'm/oyga yetganda, jon boshiga daromad $2\,860\,000 / 4 = 715\,000$ so'mni tashkil etadi:

$$GAP_1 = \max(0; 715\,000 - 715\,000) = 0$$

$$I_2 = [(215\,000 - 0) / 215\,000] \times 100 = 100 \text{ ball}$$

Bu natija tafovut to'liq yopilganini va oilaning kambag'allik reyestridan chiqishini bildiradi.


Mexanizm miqyosi (pilot, oraliq, kengaytirilgan bosqichlar) hali amalda sinovdan o'tmagani sababli, I_1 uchun uchta real ssenariy ko'rib chiqiladi: dastlabki (pilot) bosqichda maqsadli auditoriyaning 10 foizi, oraliq bosqichda 25 foizi va kengaytirilgan bosqichda 50 foizi qamrab olinadi deb faraz qilinadi. Barqarorlik indeksi (I_4) uchun dasturning institutsional dizayni (majburiy 12 oylik rasmiy shartnoma, 2026-yildan kuchga kirgan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonun bo'yicha ijtimoiy sug'urta huquqining shakllanishi [15]) asosida ekspert bahosi sifatida 65 ball qabul qilingan (5-jadval, 4-rasm).

5-jadval
MSI ning ssenariylar bo'yicha yakuniy qiymati (12% imtiyoz stavkasida)⁸

Bosqich	I_1	I_2	I_3	I_4	MSI (ball)
Pilot (dastlabki)	10	100	38,93	65	52,5
Oraliq	25	100	38,93	65	57
Kengaytirilgan	50	100	38,93	65	64,5

⁷ Muallif ishlanmasi

⁸ Muallif ishlanmasi



4-rasm. Qamrov (I_1) bosqichiga qarab yakuniy MSI qiymati⁹


Hisob-kitob: $MSI = 0,30 \times I_1 + 0,30 \times 100 + 0,25 \times 38,93 + 0,15 \times 65 = 0,30 \times I_1 + 48,41$. Natijada MSI qiymati qamrov bosqichiga qarab 52,5 balldan (pilot) 64,5 ballgacha (kengaytirilgan) o'zgaradi - bu 100 ballik shkalada o'rtadan yuqori samaradorlik darajasini bildiradi, biroq I_1 ning nisbatan pastligi dasturning asosiy cheklovi ekanini ko'rsatadi.

I_1 – I_3 o'rtasidagi almashinuvni ko'rsatish uchun qo'shimcha taqqoslash o'tkazildi: agar qamrov darajasi ($I_1 = 25$) o'zgarmagan holda imtiyoz stavkasi 12% o'rniga 1% qilib belgilansa, I_3 38,93 dan 94,91 ballgacha o'sadi va MSI 55,9 dan 70,9 ballgacha ko'tariladi. Bu shuni ko'rsatadiki, agar ish beruvchi ishtiroki (I_1) subsidiya stavkasidan mustaqil bo'lsa, past stavka byudjet nuqtai nazaridan afzalroq bo'ladi; 12% stavkaning tanlanishi faqat u yuqori I_1 ni ta'minlashi isbotlangan taqdirdagina iqtisodiy jihatdan asoslidir - bu H3 gipotezasini bevosita empirik tekshirishni talab qiladigan ochiq savol sifatida qoladi.

12% ssenariysi bo'yicha bitta ishtirokchiga to'g'ri keladigan yillik sof byudjet samarasi (2 625 600 so'm) turli miqyosdagi qamrovga ko'paytirilganda 6-jadvaldagi natijalar olinadi (6-jadval, 5-rasm).

6-jadval
Turli qamrov miqyosida yillik sof byudjet samarasi¹⁰

Ishtirokchilar soni, kishi	Yillik sof byudjet samarasi, mlrd so'm
10 000	26,26
100 000	262,56
1 000 000 (2026-yil davlat maqsadi)	2 625,6



5-rasm. Qamrov miqyosiga qarab yillik sof byudjet samarasi (log shkala)¹¹

⁹ Muallif ishlanmasi


¹⁰ Muallif ishlanmasi

¹¹ Muallif ishlanmasi



Agar 2026-yilga hukumat tomonidan belgilangan bir million kishiga barqaror bandlik ta'minlash vazifasining [21] bir qismi aynan ushbu manzilli mexanizm orqali amalga oshirilsa, yillik sof byudjet samarasi 2625,6 mlrd so'mni tashkil etishi mumkin - bu ijtimoiy transfertlarni kengaytirmasdan turib byudjet resurslarini bo'shatish imkoniyatini ko'rsatadi.

Ikkilamchi ma'lumotlar tahlili shuningdek hududiy notekislikni tasdiqlaydi: 2024-yil davomida Buxoro viloyatida kambag'allik darajasi 11,8 foizdan 8,7 foizga, Samarqand viloyatida 10,5 foizdan 7,5 foizga, Namangan viloyatida 10,4 foizdan 7,6 foizga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 13,6 foizdan 10,8 foizgacha pasaygan; eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatida (5,7%), eng yuqorisi esa Xorazm viloyatida (11,9%) qayd etilgan [7] (6-rasm).



6-rasm. Hududlar kesimida kambag'allik darajasining o'zgarishi (2024-yil, tanlangan hududlar)¹²

Bu notekislik I_1 (qamrov) parametrining hududlar kesimida farqlanishi zarurligini, ya'ni MSI modelining hududiy darajada differensial qo'llanilishi lozimligini ko'rsatadi va H2 gipotezasini dastlabki darajada tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil va natijalar bo'limida olingan hisob-kitoblar quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, MSI modeli I_2 (natija samaradorligi) bo'yicha 100 ball, ya'ni to'liq samaradorlik ko'rsatkichini namoyon etdi. Bu esa mexanizmning ishtirokchi oilalarni kambag'allik chegarasidan chiqarish borasida nazariy jihatdan samarali ekanini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, I_3 (xarajat-natija) ko'rsatkichi imtiyoz stavkasiga bevosita bog'liq bo'lib, 12% stavkada 38,93 ballni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkichni yanada oshirish uchun stavkani maqbullashtirish yoki I_1 (qamrov) ko'rsatkichini muqobil yo'llar orqali oshirish imkoniyatlari mavjud. Uchinchidan, yakuniy MSI qiymati (52,5–64,5 ball) asosan I_1 — qamrov ko'rsatkichi bilan belgilanadi. Bu esa dasturning maqsadli auditoriyaga yetib borish ko'lamini yanada kengaytirish umumiy samaradorlikni oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri ekanini tasdiqlaydi (H1 gipotezasi tasdiqlandi). To'rtinchidan, hududlar kesimidagi tafovutlar (Navoiyda 5,7% dan Xorazmda 11,9% gacha) MSI modelini hududiy darajada differensial qo'llash maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi (H2 gipotezasi dastlabki darajada tasdiqlandi). Beshinchidan, I_1 va I_3 o'rtasidagi trade-off (H3 gipotezasi)ni yanada chuqur empirik o'rganish kelgusi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini ham alohida ta'kidlash lozim: I_1 va I_4 komponentlari hozircha ssenariy va ekspert bahosi asosida hisoblangan, chunki birlamchi so'rovnoma ($n = 400$) va chuqurlashtirilgan intervyular (30–40 nafar) ma'lumotlarini to'plash tadqiqotning keyingi bosqichida amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Shu sababli, MSIning ushbu maqolada keltirilgan qiymatlari dastlabki, ssenariyga asoslangan baholar sifatida talqin qilinadi va indeksning to'liq empirik validatsiyasi keyingi tadqiqot bosqichida taqdim etiladi (7-jadval).

¹² Muallif ishlanmasi



No	Taklif	Asoslash / mazmuni
1	Manzilli ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish.	"Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" bazalarini yagona raqamli platformaga integratsiya qilish va real vaqt rejimida yangilab borish — bu I1 (qamrov) ko'rsatkichini oshirish orqali umumiy MSI qiymatini sezilarli darajada yaxshilaydi (qamrovni 10% dan 50% gacha oshirish MSIning 52,5 ballidan 64,5 balligacha ko'taradi).
2	Pilot mexanizmni joriy etish va monitoring qilish.	Kambag'al oila a'zosini ishga olgan tadbirkorga ijtimoiy soliq imtiyozi mexanizmini pilot tuman/viloyat miqyosida joriy etish va uni birlamchi so'rovnoma (n = 400) hamda chuqur intervyu (30–40 nafar) orqali monitoring qilish; bu I1ning imtiyoz stavkasiga elastikligini empirik aniqlash imkonini beradi.
3	Norasmiy sektorni rasmiylashtirish.	2026-yildan kuchga kirgan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonun doirasida norasmiy sektor ishchilarini bosqichma-bosqich rasmiylashtirish choralarini rivojlantirish, ayniqsa norasmiylik darajasi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi (71%), qurilish (73%) va uy xizmati (80%) sohaslarida.
4	Byudjet mablag'larini oshirish va hududiy dasturlar.	Faol mehnat bozori dasturlariga ajratiladigan byudjet mablag'lari hajmini oshirish va ularning natijaviyligini MSI kabi ko'p o'lchovli indeks orqali muntazam monitoring qilish, shuningdek, Xorazm va Qoraqalpog'iston kabi kambag'allik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan hududlarga qaratilgan qo'shimcha dasturlarni ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan Manzilli Samaradorlik Indeksi (MSI) O'zbekistonda bandlik dasturlarining maqsadli qatlamlarga yetib borish samaradorligini yagona miqdoriy shkalada baholash imkonini beruvchi amaliy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Model qamrov, natija, xarajat-natija va barqarorlik o'lchamlarini birlashtirgan holda siyosiy qaror qabul qiluvchilarga dastur dizaynini optimallashtirish, byudjet resurslarini samarali taqsimlash va hududiy tafovutlarni kamaytirish bo'yicha empirik asoslangan yechimlarni taklif etadi. Indeksning to'liq empirik validatsiyasi, shuningdek, uni boshqa Markaziy Osiyo davlatlari misolida qiyosiy qo'llash keyingi tadqiqot bosqichining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adashov G. R. Kambag'allikni qisqartirishning makroiqtisodiy samaradorligi: O'zbekiston misolida // Iqtisodiyot va moliya tadqiqotlari. — 2025. — T. 14, № 2. — B. 45–61.
2. Asian Development Bank. Poverty Data: Uzbekistan. — Manila: Asian Development Bank, 2025.
3. Banerjee A., Duflo E. Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty. — New York: PublicAffairs, 2011.
4. Braun V., Clarke V. Using Thematic Analysis in Psychology // Qualitative Research in Psychology. — 2006. — Vol. 3, No. 2. — P. 77–101.
5. Eshmurodov A. R. Kambag'al oila vakilini ishga olgan tadbirkorga ijtimoiy soliq imtiyozi berish bo'yicha analitik hisobot: muallifning nashr etilmagan ishlanmasi. — 2026.
6. Fuzailov S. A. Iqtisodiy islohotlarning kambag'allikka ta'siri: makroiqtisodiy barqarorlik // O'zbekiston iqtisodiy jurnali. — 2025. — T. 3, № 1. — B. 22–34.
7. Gazeta.uz; World Bank. O'zbekistonda kambag'allik darajasi statistikasi. — Toshkent, 2025–2026.
8. Hamdamov Sh. K. Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish: manzilli yordam samaradorligi // Iqtisodiyot va moliya. — 2024. — № 6. — B. 51–58.
9. Hasanov R. R. Kambag'allikning institutsional omillari: rasmiy va norasmiy sektor // Toshkent iqtisodiyot universiteti ilmiy axboroti. — 2024. — № 2. — B. 88–96.
10. Heckman J. J., LaLonde R. J., Smith J. A. The Economics and Econometrics of Active Labor Market Programs // Handbook of Labor Economics. — 1999. — Vol. 3. — P. 1865–2097.
11. International Labour Organization. Gender-Responsive Diagnostics of the Informal Economy and Employment in Uzbekistan. — Geneva: ILO, 2024.
12. International Labour Organization. Decent Work Country Programme for the Republic of Uzbekistan 2021–2025. — Geneva: ILO, 2024.

13 Muallif ishlanmasi



13. International Labour Organization. Uzbekistan Unveils Major Actions to Curb Informal Economy and Strengthen Social Protection. — Tashkent: ILO News, 2026.
14. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation — Staff Report. — Washington, DC: IMF, 2025. — IMF Country Report No. 25/143.
15. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida: 2025-yil; 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. — Toshkent, 2025.
16. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Aholi turmush darajasi va bandlik statistikasi 2023–2024. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024.
17. Sachs J. The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time. — New York: Penguin Press, 2005.
18. Sen A. Development as Freedom. — Oxford: Oxford University Press, 1999.
19. Stiglitz J. The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future. — New York: W. W. Norton & Company, 2012.
20. World Bank. Charting Uzbekistan's Path to Poverty Reduction: Insights from International Comparisons. — Washington, DC: World Bank Group, 2024.
21. World Bank. Uzbekistan Overview — Macro Poverty Outlook. — Washington, DC: World Bank Group, 2026.
22. Zaripov B. K. Kambag'allikni qisqartirishda xalqaro tajriba: O'zbekiston uchun saboqlar // Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar. — 2024. — № 5. — B. 14–29.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>